



№4
2024



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI | ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА | BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

ILIMIY - METODIKALÍQ JURNAL



**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 4/2024

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, professor

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AĞZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Oliy Majlis Senatının jaslar, mádeniyat hám sport máseleleri komiteti baslıǵı orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

BEGIS TEMIRBAEV – Qaraqalpaqstan Respublikası Mádeniyat ministri, docent;

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, docent;

OMONILLA RIZAEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHABBAT TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ALIMA PIRNIYAZOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc);

YUSUPOV QONÍSBAY – pedagogika ilimleriniń doktori (DSc), professor;

UTEBAEV TAJIBAY - pedagogika ilimleriniń doktori (DSc), professor;

SEYTKASIMOV DAULETNAZAR - pedagogika ilimleriniń doktori (DSc);

ARTÍQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JAÑABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde jılına 2 márte basıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám galaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redaksiya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Turan oypatı 29-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel:551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

YOSH KOMPOZITORLAR IJODIDA KAMER-CHOLG‘U ASARLARNING IJROCHILIK TALQINI

*(Kompozitor Behzodbek Tursunboyev violonchel va fortepiano uchun “Sonata”
misolida)*

Muxamedjanova Z.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh kompozitor Behzodbek Tursunboyev ijodining o‘ziga xosligi hamda ijodkorning kamer-cholg‘u asarlarida ijrochilik talqini masalalari atroflicha aks etadi. Shuningdek, ijro va talqin masalalari ham maqolada bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: sonata, kamer-cholg‘u, ijrochilik talqini, ohanglashtirish, ijro va talqin.

Аннотация: В данной статье подробно отражены своеобразие творчества молодого композитора Бехзодбека Турсунбаева и вопросы исполнительской интерпретации в камерно-инструментальных произведениях композитора. Также в статье описаны вопросы интерпретации исполнения.

Ключевые слова: соната, камерно-инструментальные жанр, интерпретации исполнения.

Abstract: This article comprehensively reflects the uniqueness of the work of the young composer Behzodbek Tursunboyev and the issues of performance interpretation in the chamber works of the artist. The article also discusses the issues of performance and interpretation.

Key words: sonata, chamber instrument, performance interpretation, tuning, performance and interpretation.

Kirish. Sonata va sonata-simfonik turkum shakllar insoniyatning badiiy dahosi erishgan yuksak yutuqlar qatoriga kiradi. Shu bois, ushbu jiddiy hisoblanmish musiqa shakllarining umumiy xususiyatlari, shuningdek, turli sonata sonata-simfonik turkum shakllarning turli davrlardagi ishlatilish holati o‘rtasidagi farq, turli xalqlar kompozitorlarining ijodida ushbu shakllarning ishlatilish xususiyatlarini inglash musiqa bilimdonlari uchun juda muhim hisoblanadi. Misol uchun, L.Betxovenning Patetik sonatasi (№8) yoki P.Chaykovskiyning Patetik simfoniyasi (№6) tuzilishini bila turib, ushbu o‘lmas asarlarning obrazlar dunyosiga chuqurroq kirish mumkin.

Asosiy qism. Ushbu shakllar tarixiy darvlar mobaynida ko‘p marotaba o‘zgarishlarga duch kelgan bo‘lib, bugungi kunga qadar ham o‘z evolyusiyasini boshdan kechirmoqda.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, sonata, simfoniya yoki konsertning birinchi qismi sonata shaklida yoziladi. Uvertyura, poema, fantaziya singari bir qismli simfonik asarlar aksariyat hollarda sonata shaklida yaratiladi. Sonata shaklining asosida ikkita turli xarakterdagi badiiy obrazlar mavjud bo‘lishi ham bizga ma’lum. Ular ikkita muhim musiqiy mavzularda o‘z ifodasini topadi. Ular orasidagi tafovut turli ravishda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, dramatik va lirik obrazlar orasidagi qarama-qarshilik odatiy yo‘sinda aks etadi.

Sonata shakli uchta yirik bo‘limdan iborat.

Sonata shaklining tuzilishi		
<i>I bo‘lim</i>	<i>II bo‘lim</i>	<i>III bo‘lim</i>
<i>ekspozitsiya¹</i>	<i>rivojlov</i>	<i>repriza</i>
Bosh partiya; Bog‘lovchi partiya; Yondosh partiya; Yakunlovchi partiya.	Bosh va yondosh partiyalar rivojlanib, o‘zgacha qiyofada namoyon bo‘ladi.	Bosh partiya; Bog‘lovchi partiya; Yondosh partiya; Yakunlovchi partiya. Koda

Bosh va yondosh partiya sonata shaklining asosida yotuvchi asosiy qahramonlar, ya’ni ikkita turli xarakterdagi obraz. Bog‘lovchi partiya esa bosh va yondosh partiyalarning o‘rtasida joylashib, birinchi mavzudan ikkinchi mavzuga o‘tish vazifasini bajaradi. Ekspozitsiya hamda repriza bo‘limlari yakunlovchi partiya bilan tamomlanadi. Uning vazifasi musiqiy g‘oyani qaror toptirish va umumlashtirishdan iborat.

Bog‘lovchi hamda yakunlovchi partiyalar shaklda yangi o‘ziga xos musiqiy mavzular orqali gavdalanishi mumkin. Ammo aksariyat hollarda ular sonataning asosiy partiyalari (bosh va yondosh mavzular)ga xos musiqiy material asosida quriladi.

Shunday qilib, sonata shaklining **ekspozitsiya** va **repriza** bo‘limlari to‘rtta asosiy qismdan iborat: *bosh, bog‘lovchi, yondosh va yakunlovchi partiyalar*.

Rivojlov bo‘limida ekspozitsiyaning mavzulari rivojlanadi, variatsion ravishda o‘zgaradi, qiyofasi o‘zgacha tusga kiradi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, ekspozitsiya ikkita turli obrazni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ysa, rivojlov bo‘limi shu ikki obrazni to‘qnashtiradi, ular o‘rtasidagi ziddiyatni keskinlashtiradi va

¹ Ekspozitsiya – ilk ko‘rinish

dramatik kulminatsiyaga olib keladi. Dramatik keskinlik va rivojlov shiddati, ko'p hollarda, ekspozitsiyadagi asosiy obrazlar orasidagi tafovutning darajasiga bog'liq.

Ekspozitsiyadagi mavzularning rivojlovdagi o'zgarishi va variatsiyalanishi kompozitorlar tomonidan turli usullar yordamida amalga oshiriladi. Rivojlovda mavzularning qisqargan holda namoyon bo'lishi ana shunday usullardan biri hisoblanadi. Mavzularning alohida elementlarini shu tahlitda ishlatish **bo'laklarga ajratish** deyiladi.

Ekspozitsiya mavzularining bayon etilishi xarakterdagi o'zgarishlar, xususan, orkestr yangrash xarakteridagi o'zgarishlar bois, rivojlovda mavzular butunlay yangi qiyofa kasb etadi.

Gohida rivojlovda yangi musiqiy mavzular paydo bo'ladi: rivojlovning ichida epizodlar vujudga keladi. L.Betxovenning Simfoniya №3 asarining birinchi qismidagi rivojlov fikrimizga yaqqol dalildir.

Sonata shaklining repriza qismida ikkala asosiy mavzu o'ziga xos ravishda bir-biriga yaqinlashadi va ular orasidagi qarama-qarshilik muayyan darajada silliqatlanadi. Bu holat ekspozitsiyadan

XXI-asrga kelib, kompozitorlik ijodiyoti yanada ravnaq topdi. Shu o'rinda, O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan kompozitorlarimiz "ustoz - shogird" an'anasini davom ettirgan holda yangi iste'dod sohiblarini tarbiyalab kelmoqda. Shundaylardan biri yosh kompozitor – Behzodbek Tursunboyevdir.

Respublika va Xalqaro tanlovlar sovrindori, kompozitor Behzodbek Tursunboyev bugungi kunda ijod sohasida ma'lum muvaffaqiyatlarga erishib kelayotgan yoshlardan. U 2018-2022 yillar mobaynida (Bakalavriat) va 2023-yildan O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Bastakorlik san'ati" yo'nalishi bo'yicha magistratura bosqichida "Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" kafedrasida professori, mahoratli kompozitor Oydin Abdullayeva sinfida tahsil olib, ustoz rahbarligida turli musiqiy janrlarda asarlar yaratib kelmoqda.

Uning ijodiy bisotiga razm tashlaydigan bo'lsak, "Jaloliddin" 4 ko'rinishli balet (D.Abduhakimova librettosi), "Usmon Nosir" opera-oratoriya (Iqbol Mirzo librettosi), simfonik orkestr uchun "To'yona" pyesasi, "Jaloliddin" baletidan "Raqs-syuita", soprano va fortepiano uchun Zulfiya so'zlariga "Sog'inch", "Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?", Farida Afro'z she'rlariga "Ayol qalbi" vokal turkumi ("Sizni desam", "Iztirob", "Kelmasmidim yor" romanslari), tenor va fortepiano uchun Hamid Olimjon she'rlariga "Ayriliqda" romanslari, "Ayol qalbi" vokal turkumi, fortepiano uchun "Savti kalon soqiynomasi" mavzulariga Variatsiyalar (mazkur asar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining maxsus sertifikatini bilan taqdirlangan), atoqli Ozarbayjon kompozitori Uzeir Hojibekov xotirasiga "Baxshida" fantaziyasi (ushbu asar A.Spendiarov nomidagi xalqaro kompozitorlar ko'rik-tanlovi I o'ringa (laureat) sazovor bo'lgan),

fortepiano uchun “Ming bir kecha” turkumi, Dehqonboy Jalilov xotirasiga “Elegiya”, “Do‘stim xotirasiga”, “Aforizmlar” turkumi, fugalar, passakaliyalar, fleyta va fortepiano uchun “Ko‘ngil ifori”, violonchel va fortepiano uchun Sonata, chang va fortepiano uchun “Farg‘ona go‘zali” fantaziyasi, dutor alt va fortepiano uchun “Bayram taronasi”, Omnibus ansabli uchun “Makoms tones”, “Musika – mening hamrohim”, zarbli cholg‘ular uchun “Holat” asari, Ahmad Yassaviy so‘zlariga “Menga o‘q sen, keraksen” asari, bolalar uchun “O‘zbekiston” (Zulfiya Umrzoqova she’ri), “O‘zbekiston uyimiz (Safar Barnoyev she’ri), “Kapalakjon, kapalak”, (Qambar Ota she’ri) “Inson aziz” (O‘ktamxon Soliyeva she’ri), “Men ketsam” (Ra‘no Yarasheva she’ri) qo‘shiqlari muallifi, “Rast” mug‘omi, “Arirang”, “Qoraqalpoqcha”, “Aliqambar” singari kuylarini qayta ishlagan.

Kompozitor Behzodbek Tursunboyevning kamer-cholg‘u asarlaridan violonchel va fortepiano uchun bir qismli “Sonata” musiqiy asarini ijrochilik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqamiz.



Muallifning mazkur asari sonata shaklida, 4/4 o‘lchovida, Allegretto tempida, mi-frigiya ladida yozilgan. 5-taktda violonchel partiyasida si bemol kiritilishi ladning o‘zgaruvchanligini, modal tabiatini ko‘rsatadi. Bosh partiya mavzusi ifodali kuychan xarakterda, o‘ziga xos bezaknamo ko‘rinishga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir. Jo‘rluk qatlamida **mp** dinamikasida uzviy ko‘rinishda aks etgan septakkordlarni kuzatimiz mumkin bo‘ladi. Shundan so‘ng, bosh partiya mavzusi fortepianoda o‘tkaziladi. Violonchel partiyasida esa ovozosti kuy yo‘li yangraydi.

25-32 taktda violonchel va fortepiano o‘rtasidagi o‘zaro munosabat “savol javob” tarzida davom etadi. Bunda violonchelda sadolanayotgan kuy yo‘lini

fortepiano mantiqiy davom ettiradi. 29-30 taktlarda joʻrluk qatlamida garmonik figuratsiyada alohida urgʻulanib, yashirin ovozi kuy yoʻlini hosil qiladi.

Yoshdosh partiya fa#-doriy ladida yozilgan. Mavzu dramatik xarakterga ega. Kuy yoʻli oʻzining rivojlanishi asnosida mi-doriy va fa#-doriy ladiga qaytishini kuzatish mumkin. Yondosh partiya violonchel cholgʻusida *f* dinamikasida asosiy tempda ijro etiladi. Joʻrluk partiyasida dinamika, xarakter, metro-ritmning ifodaviyligiga diqqat bilan eʼtibor qaratish lozim. Mavzuni ohanglashtirishda kuyning ichki dramaturgik holatini, xarakter meʼzonlarini inobatga olish talab etiladi. Ijrochidan eng avvalo musiqiy asarning dramaturgik gʻoyasini puxta oʻzlashtirishi asarning sifatli va muvaffaqiyatli ijrosiga erishishga yordam beradi.

88

91

Rivojlov qismi bosh partiya va yondosh partiya mavzusi elementlari asosida fugettasimon ko‘rinishga ega. Bu qism asarning kulminatsion cho‘qqisi bo‘lib, kuy yo‘li asta-sekinlik bilan yuqoriga tomon rivojlanishini sezish mumkin. 88-taktdan violonchel va fortepiano cholg‘usi o‘rtasida imitatsion harakati yaqqol aks etadi. Garmonik qatlam tobora dissonanslashuvi taranglikni yanada oshirishga xizmat qiladi.

96

99

102

ad libitum.



Musiqiy asarning 101-taktiga kelib, violonchel partiyasida *ad.libitum* (o‘z xohishiga ko‘ra) atamasi qo‘llanilgan. Aynan shu taktga qadar, musiqiy asarda dramaturgik beqarorlik holati, dissonans akkordlarning dinamik o‘sishi, taranglik vaziyati asarda erkinlikni, sokinlikni kontrast (qarama-qarshi) holda qo‘llashga olib keldi. Violonchel partiyasida 101-taktdan avjdan pastki katta oktava “re” tovushiga tezlik bilan tushadi. Garmonik jo‘rlik dissonans kvintakkord kiritilgan tovushlar bilan bir necha marotaba ta’kidlanadi.



114-taktdan esa fortepianoda *mp* dinamikasida asosiy bosh mavzuga bog‘lovchi qism yangraydi. Bu yerda mavzuni ifodali yangrashiga e‘tibor qaratish talab etiladi. O‘ng qo‘ldagi kiritilgan tovushlarning sadolanishida *dissonans* holatida emas, aksincha tabiiy holat sifatida qarash o‘rinlidir.

Repriza qismida bosh partiya (mi-frigiy) va yondosh partiya qismi (mi-doriy) asosiy ladida yangraydi.



142

146

141-taktda violonchelda pizz (chertib chalish) ko‘rinishda ijro etiladi. Fortepianoda yondosh partiya mavzusi sadolanadi. Mavzuni ijro etishda ifodaviylikka va tempning aniqligiga ahamiyat etish lozim.

150

153

Koda qismida asta-sekin dinamika o‘shishi asarning yakuniy qismiga xos xususiyatlardan biri. Bir xil jumalarning bir dinamikada yangrashi, tinglovchida e’tiborning susayishiga olib keladi. 155-takda *crescendo* (kuchayib) violonchel

partiyasida *ff* dinamikasida “mi” tovushiga keladi. Garmonik-ritmik joʻrlik vazifasini bajarayotgan fortepiano yakkaxon cholgʻu violonchel bilan birgalikda yakunlashi lozim.

Xulosa. Oʻzbekiston kompozitorlari ijodida kamer-cholgʻu asarlari alohida oʻrin tutadi. Oʻzbek musiqasining lad, ohang va ritmik jihatdan rang-barang imkoniyatlari sonata shaklining musiqiy-ifodaviy jihatdan mukammallashuvini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishoq Rajabov. “Maqomlar”. T., 2006.
2. Yunus Rajabiy. “Shashmaqom II Rost” T., 1969.
3. З.Мухамеджанова. Камерный ансамбль. Учебник для студентов бакалавриата 3-курса обучения по предмету «Камерный ансамбль». Ташкент: 2024 г.



MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Раджабова С.Р. СОВРЕМЕННОЕ ВОКАЛЬНОЕ ПРОИЗВЕДЕНИЕ: СОЕДИНЕНИЕ ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИИ В АЦИОНАЛЬНОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ.....	3
2	Туйчиева Р.Х. СОНАТА ДЛЯ СКРИПКИ И ФОРТЕПИАНО ФАТТАХА НАЗАРОВА В КЛАССЕ КАМЕРНОГО АНСАМБЛЯ.....	12
3	Muxamedjanova Z. YOSH KOMPOZITORLAR IJODIDA KAMER-CHOLG‘U ASARLARINING IJROCHILIK TALQINI.....	17
4	Ражабова Н.Ф. ЛАДЫ НАРОДНОЙ МУЗЫКИ В КУРСЕ СОЛЬФЕДЖИО.....	26
5	Saidxonov A.S. IOGAN SEBASTYAN BAX OHANGLARDAN TARALAYOTGAN HAYOT.....	31
6	Muxamedjanova Z. B.TURSUNBOYEVNING FORTEPIANO UCHUN “SAVTI KALON SOQIYNOMASI” MAVZUSIGA VARIATSIYASI TAHLILI VA TALQIN MASALASI.....	36
7	Чаршемов Ж.А. ОРКЕСТР УЧУН КОНЦЕРТ ЖАНРИ ТАРИХИ.....	44
8	Kamalova G.M. JAMIL CHARHEMOVTIŇ “POPURRI” SHÍGARMASINIŇ ÓZGESHELIGI.....	52
9	Allaniyazov B.Q. «MUXAMMES» JANRINIŇ TEORIYALÍQ HÁM ÁMELIY MASHQALALARI.....	58
10	Мухамедзиянов К.Т. О ВОКАЛЬНОМ ЦИКЛЕ «РУБАЯТ» НОДИРА МАХАРОВА НА СЛОВА АЛИШЕРА НАВОИ.....	64

KÓRKEM ÓNER

11	Allanbaev R.O. MUZÍKALÍ SHÍGARMALARDIŇ QARAQALPAQ TEATRÍNDÁ TUTQAN ORNI.....	69
12	Djumaniyazov U.M. XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRIDA RUBOB PRIMANING O‘RNI.....	76
13	Áliev N.Ġ. QARAQALPAQ MUZIKA MÁDENIYATINDA DEMLI ÁSBAPLAR.....	81
14	Kamalova G., Dauletbaeva G. DUWTAR SAZ ÁSBABÍN ZAMANAGÓYLESTIRIWDIŇ ÁHMIYETI.....	89
15	Karimova N. O‘ZBEKISTONDA O‘TKAZILAYOTGAN XALQARO TIVALLARNING MADANIY ALOQALARDAGI ROLI (Xalqaro asal ivali misolida).....	95
16	Ризаев О. ТЕАТР ВА ЗАМОҲ.....	105
17	Shukurov A. MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA MILLIY MADANIYATNING AHAMIYATI.....	111

18	Хожаназаров Т. ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ОПЕРА САНЪАТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ.....	117
19	Мамадалиев А. ЎЗБЕК МАДАНИЙ МУСИҚА ИЖРОЧИЛИГИДА ХАЛҚ ЧОЛҒУЛАРИ АНСАМБЛЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ (чангчилар ансамблида Ф.Содиқовнинг “Ҳумор” асари мисолида)..	122
20	Назаров О. МИЛЛИЙ ЧОЛҒУЛАРДА ЎҚИТИШ УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА МУТАХАССИСЛИК ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ АҲАМИЯТИ (Абдувоҳид Мажидов фаолияти мисолида).....	129
21	Юлдашева М.Б. РОЛЬ МЕЖКУЛЬТУРНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ И КУЛЬТУРНОЙ ДИПЛОМАТИИ В ПРОДВИЖЕНИИ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	135

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

22	Gulmanov I.Sh. DÁP ÁSBABÍN OQÍTÍW METODIKASÍ TARIYXÍ..	143
23	Iseev R. FORTEPIANO SABAGÍNDÁ SES GOZALLÍGÍ ÚSTINDE ISLEW PROCESI.....	154
24	Yusupaliyeva D.K. YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI TARBIYASIDA MILLIY QADRIYAT: MONIYAT VA MAZMUN....	160
25	Азимов Б. ИЛМ ВА ТАЖРИБАДАГИ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ (Васильев Феоктист Никифорович ижоди мисолида).....	168
26	Казакбаева М. РОЛЬ И РАЗВИТИИ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.....	175
27	Умарова В. РАБОТА НАД ПОЛИФОНИЧЕСКИМИ ПРОИЗВЕДЕНИЯМИ В КЛАССЕ «СПЕЦИАЛЬНОЕ ФОРТЕПИАНО».....	180

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

28	Тлеуниязова Г.Б. ЗАМОНАВИЙ ҚОРАҚАЛПОҚ ЛИРИКАСИНИНГ ТАРАҚҚИЁТ ТАМОЙИЛЛАРИДА ШЕЪР КОМПОЗИЦИЯСИ.....	186
29	Бекбергенова А.У. ПИСЬМЕННЫЙ ПАМЯТНИК «КИТАБИ ДЕДЕМ КОРКУТ» И ДАСТАН «ЕР ЗИЙУАР».....	196
30	Бекбергенова А.У. ҚАРАҚАЛПАҚ ОЧЕРКЛЕРИНИҢ РАЎАЖЛАНЫЎ ТЕНДЕНЦИЯЛАРЫ (1991-2000-жыллар).....	202

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

“STATION X” baspası
Nókis-2024